


Surxondaryo viloyatining sanoat ishlab chiqarishi (2020- yil yanvar-noyabr)


Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2020- yilning yanvar-noyabr oylarida viloyat korxonalarini tomonidan 4 trln. 413,8 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2019- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishning fizik hajm indeksi* 108,2 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarish tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi (88,4 %) ni tashkil etdi.



B-Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishslash, **C**-Ishlab chiqaradigan sanoat **D**-Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash, **E**-Suv bilan ta'minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish.

Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish, FHI* % da




Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi pasayishining asosiy omili bo'lib, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishslash sanoatida - 17,9 % ga va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilishda - 24,4 % ga pasayishi kuzatildi.

Shuningdek, ishlab chiqaradigan (qayta ishslash) sanoatning - 10,3 % ga hamda elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning - 21,8 % ga o'sishi kuzatildi.

*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.


Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatining jami sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi, % da



Tog‘-kon sanoati va o‘chiq konlarni ishlash korxonalarini tomonidan 2020- yilning yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 181,7 mlrd. so‘mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 4,1 % ini tashkil etdi.


Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi

yil boshidan I-II-III-choraklar, % da



Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdagani sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

O‘tgan yilning mos davriga nisbatan, % da






SURXONDARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

**Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari
tomonidan ayrim turdag'i sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**

Sanoat mahsulotlari	2019- yil yanvar-noyabr	2020- yil yanvar-noyabr	Farqi +/-
Ko‘mir, ming t.	223,2	241,6	18,4
Neft, ming t.	75,0	60,0	-15,0
Qattiq tuz (osh tuzidan tashqari), ming t.	28,2	21,6	-6,6
Qum, ming t.	44,7	45,0	0,3
Chaqiq tosh, ming t.	71,2	96,8	25,6
Yodgorliklar, pardozlash yoki qurilish ishlari uchun granit, qumtosh va boshqa toshlar, ming t.	0,2	1,5	1,3

Ishlab chiqaradigan sanoat



2020- yilning yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 3 trln. 903,6 mlrd. so‘mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 88,4 % ini tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, % da





SURXONDARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,1 % ni (2019- yilning yanvar-noyabr oylarida - 0,1 %), o'rta-yuqori texnologiyali - 0,3 % (0,4 %), o'rta-quyi texnologiyali - 20,3 % (24,0 %) va quyi texnologiyalisi - 67,7 % (60,6 %) ni tashkil etdi.

Yuqori texnologiyali

Ulushi % da

0,1

2019- y.

0,1

2020- y.

O'rta-yuqori texnologiyali

Ulushi % da

0,4

2019- y.

0,3

2020- y.

O'rta-quyi texnologiyali

Ulushi % da

24,0

2019- y.

20,3

2020- y.

Quyi texnologiyali

Ulushi % da

60,6

2019- y.

67,7


2020- y.

Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida mashina va asbob- uskunalar ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'rnatish, avtovositalari, yarim pritseplar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi - 5,5 % (2019- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 106,6 %), metallurgiya sanoatining ulushi - 0,5 % (2019- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 213,3 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 46,0 % (2019- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 140,5 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 28,1 % (2019- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 77,3 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi - 0,5 % (2019- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 129,5 %) ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdag'i mahsulotlarning o'sish sur'ati

2020- yilning yanvar-noyabr oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 23,8 ming tonna paxta tolasi (2019- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan 488,6 %), 32,0 ming tonna chakana savdo uchun qadoqlanmagan yigirilgan ip (9,9 m.), 122,6 ming tonna un (112,0 %), 147,2 ming tonna portlandsement ishlab chiqarilib yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da




**Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalar
tomonidan ayrim turdag'i mahsulotlarni ishlab chiqarish**

Sanoat mahsulotlari	2019- yil yanvar-noyabr	2020- yil yanvar-noyabr	Farqi +/-
Paxta tolasi, ming t.	4,8	23,8	19,0
Tozalangan paxta yog'i, ming t.	5,3	7,0	1,7
Un, ming t.	109,4	122,6	13,2
Portlandsement, ming t.	-	147,2	147,2
Dizel yoqilg'isi, ming t.	9,1	1,8	-7,3
Sariyog', t.	1,2	3,3	2,1

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

2020- yilning yanvar-noyabr oylarida




Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 259,0 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining (5,9 % ini) tashkil etdi).

2020- yilning yanvar-noyabr oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida gazsimon yoqilg'ini quvurlar orqali taqsimlash bo'yicha xizmatlar o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 31,4 % ga oshganligi kuzatildi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi


yil boshidan I-II-III-choraklar, % da



**Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash
sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini
ishlab chiqarish**


Sanoat mahsulotlari	2019- yil yanvar-noyabr	2020- yil yanvar-noyabr	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt/s	2,8	0,005	-2,79
Issiqlik energiyasi, ming gkal	58,8	30,8	-28,0

**Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi,
chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish**



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 69,5 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,6 % ini) tashkil etdi.

**Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi
yil boshidan I-II-III-choraklar, % da**



Sanoat mahsulotlari	2019- yil yanvar-noyabr	2020- yil yanvar-noyabr	Farqi +/-
Oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mldr.so'm	2,4	3,4	1,0



SURXONDARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI


Sanoat mahsulotlari	2019- yil yanvar-noyabr	2020- yil yanvar-noyabr	Farqi +/-
---------------------	----------------------------	----------------------------	--------------

**Boshqa axlatxonalarda xavfsiz
chiqindilarni yo'qotish bo'yicha
xizmatlar, mldr.so'm**

O'tgan yilning mos davriga nisbatan boshqa axlatxonalarda xavfsiz chiqindilarni yo'qotish bo'yicha xizmatlar 51,5 % ga, oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 43,3 % ga oshganligi kuzatildi.

Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 1 trln. 771,2 mldr. so'mni tashkil etdi va 2019- yilning mos davriga nisbatan 5,0 % ga o'sgan holda uning jami sanoatdagi ulushi 40,1 % ni tashkil etdi.



Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari va pivo 2,9 % (2019- yil yanvar-noyabr oylarida 5,4 %)ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Termiz shahriga to'g'ri kelib 22,0 % ni, shuningdek, Denov tumani 15,2 % ni, Sho'rchi tumani 14,5 % ni, Jarqo'rg'on tumani 8,0 % ni hamda Termiz tumani 6,4 % ni tashkil etdi.

**Hududlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab
chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati
2020- yilning yanvar-noyabr oylarida**

	Mird. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da		Mird. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	390,3	22,0	102,0		59,9	3,4	108,1
Termiz shahri							
	Mird. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da		Mird. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	2,6	0,1	118,6		57,6	3,3	109,8
Bandixon							
	Mird. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da		Mird. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	268,7	15,2	98,4		142,0	8,0	104,6
Denov							
	Mird. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da		Mird. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	84,8	4,8	142,0		46,1	2,6	114,7
Qumqo'rg'on							
	Mird. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da		Mird. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	37,8	2,2	111,9		71,5	4,0	119,4
Muzrabot							
	Mird. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da		Mird. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	87,9	5,0	111,7		114,1	6,4	109,5
Sariosiyo							
	Mird. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da		Mird. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	64,3	3,6	109,8		86,6	4,9	93,7
Uzun							
	Mird. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da				
	257,0	14,5	99,6				
Sho'rchi							

Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'ati (viloyat o'sish sur'ati 105,0 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Qumqo'rg'on (142,0 %), Oltinoy (119,4 %), Bandixon (118,6 %), Qiziriq (114,7 %), Muzrabot (111,9 %), Sariosiyo (111,7 %), Boysun (109,8 %), Uzun (109,8 %), Termiz (109,5 %) hamda Angor (108,1 %) tumanlarida qayd etildi.

**Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar
tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish
2020- yilning yanvar-noyabr oylarida**

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 775,9 mlrd. soʻmlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.

Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning umumiy ishlab chiqarishdagi tutgan ulushi 17,6 % ni tashkil etdi.

**Surxondaryo viloyati hududlari kesimida
sanoat ishlab chiqarish hajmlari
2020- yilning yanvar-noyabr oylarida**


	Mird. soʻm			Ulushi % da			Oʼsishi % da		
	4413,8			100,0			108,2		
Surxondaryo viloyati *									
	Mird. soʻm	Ulushi % da	Oʼsishi % da		Mird. soʻm	Ulushi % da	Oʼsishi % da		
	954,3	21,6	112,3		83,8	1,9	105,0		
	Termiz shahri				Angor				
	Mird. cym	Ulushi % da	Oʼsish surʼati		Mird. soʻm	Ulushi % da	Oʼsishi % da		
	4,7	0,1	105,9		69,9	1,6	103,5		
	Bandixon				Boysun				
	Mird. soʻm	Ulushi % da	Oʼsishi % da		Mird. soʻm	Ulushi % da	Oʼsishi % da		
	567,2	12,8	104,0		865,1	19,6	105,3		
	Denov				Jarqoʼrgʼon				
	Mird. soʻm	Ulushi % da	Oʼsishi % da		Mird. soʻm	Ulushi % da	Oʼsishi % da		
	331,7	7,5	144,9		93,5	2,1	115,2		
	Qumqoʼrgʼon				Qiziriq				
	Mird. soʻm	Ulushi % da	Oʼsishi % da		Mird. soʻm	Ulushi % da	Oʼsishi % da		
	161,2	3,7	125,6		74,4	1,7	105,2		
	Muzrabot				Oltinsoy				
	Mird. soʻm	Ulushi % da	Oʼsishi % da		Mird. soʻm	Ulushi % da	Oʼsishi % da		
	239,9	5,4	101,2		130,8	3,0	103,1		
	Sariosiyo				Termiz				

* Hududlar boʻyicha taqsimlanmagan maʼlumotlarni qoʼshgan holda

	<i>Mird. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>		<i>Mird. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>
	97,9	2,2	116,5		352,1	8,0	103,5
Uzun						Sherobod	
	<i>Mird. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>		<i>Mird. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>
	387,3	8,8	113,0				
Sho'rchi							

**Surxondaryo viloyati hududlari kesimida ishlab
chiqarish fizik hajm indeksi, iste'mol mahsulotlari
ishlab chiqarishning o'sish sur'ati % da**

Viloyat sanoat ishlab chiqarish fizik hajm indeksining ko'payishiga, Qumqo'rg'on (2019- yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan 144,9 %), Muzrabot (125,6 %), Uzun (116,5 %), Qiziriq (115,2 %), Sho'rchi (113,0 %) tumanlarida va Termiz shahrida (112,3 %) sanoat ishlab chiqarish hajmlari fizik hajm indeksining sezilarli darajada ko'payganligi bilan izohlashimiz mumkin.



**Surxondaryo viloyati jami sanoat
mahsulotlari hajmida hududlarning ulushi, % da**

Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko‘p ulush Termiz shahri (Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmining 21,6 % i), Jarqo‘rg‘on (19,6 %) hamda Denov (12,9 %) tumanlari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

Eng past ko‘rsatkich esa Bandixon (0,1 %), Oltinsoy (1,7 %), Boysun (1,6 %) hamda Angor (1,9 %) tumanlariga to‘g‘ri kelmoqda.

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Termiz shahri (5 278,4 ming so‘m), Jarqo‘rg‘on (3 942,8 ming so‘m), Termiz (1 685,0 ming so‘m) hamda Sho‘rchi (1 844,5 ming so‘m) tumanlarida o‘rtacha Viloyat darajasi ko‘rsatkichidan (1 666,7 ming so‘m) ancha yuqoriligini ko‘rsatmoqda.

Viloyat bo‘yicha aholi jon boshiga iste‘mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 668,8 ming so‘m bo‘lgani holda Termiz shahrida – 2 158,9 ming so‘mni, Denov tumanida – 693,7 ming so‘mni, Termiz tumanida – 1 470,8 ming so‘mni, Sho‘rchi tumanida – 1223,8 ming so‘mni tashkil etdi.

**Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan sanoat mahsulotlari
va iste‘mol mahsulotlari ishlab chiqarish
2020- yilning yanvar-noyabr oylarida, ming so‘m**



	<i>Sanoat mahsulotlari</i>		<i>Iste‘mol mahsulotlari</i>	
	1666,7		668,8	
Surxondaryo viloyati				
	<i>Sanoat mahsulotlari</i> 5278,4	<i>Iste‘mol mahsulotlari</i> 2158,9		<i>Sanoat mahsulotlari</i> 629,5
				<i>Iste‘mol mahsulotlari</i> 450,0
Termiz shahri				
	<i>Sanoat mahsulotlari</i> 62,1	<i>Iste‘mol mahsulotlari</i> 32,9		<i>Sanoat mahsulotlari</i> 601,8
				<i>Iste‘mol mahsulotlari</i> 495,7
Bandixon				
	<i>Sanoat mahsulotlari</i> 1464,1	<i>Iste‘mol mahsulotlari</i> 693,7		<i>Sanoat mahsulotlari</i> 3942,8
				<i>Iste‘mol mahsulotlari</i> 647,3
Denov				
	<i>Sanoat mahsulotlari</i> 1666,7	<i>Iste‘mol mahsulotlari</i> 668,8		<i>Sanoat mahsulotlari</i> 1666,7
				<i>Iste‘mol mahsulotlari</i> 668,8
Jarqo‘rg‘on				

	Sanoat mahsulotlari 1408,0	Iste'mol mahsulotlari 359,9		Sanoat mahsulotlari 816,9	Iste'mol mahsulotlari 402,3
Qumqo'rg'on					Qiziriq
	Sanoat mahsulotlari 1131,9	Iste'mol mahsulotlari 265,2		Sanoat mahsulotlari 418,3	Iste'mol mahsulotlari 402,0
Muzrabot					Oltinsoy
	Sanoat mahsulotlari 1138,5	Iste'mol mahsulotlari 417,4		Sanoat mahsulotlari 1685,0	Iste'mol mahsulotlari 1470,8
Sariosiyo					Termiz
	Sanoat mahsulotlari 568,5	Iste'mol mahsulotlari 373,4		Sanoat mahsulotlari 1807,4	Iste'mol mahsulotlari 444,4
Uzun					Sherobod
	Sanoat mahsulotlari 1844,5	Iste'mol mahsulotlari 1223,8			
Sho'rchi					

Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

2020- yilning yanvar-noyabr oylarida, % da

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 1 trln. 905,6 mlrd so'mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiyligi ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 43,2 % ni tashkil etdi.




Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Oltinsoy, Bandixon, Uzun (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0 % dan), Qiziriq (99,7 %), Boysun (93,9 %) tumanlarida kuzatildi.

Viloyatamiz hududlari kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni ko'rsatdiki, Sherobod (21,5 %), Qumqo'rg'on (30,7 %), Jaqo'rg'on (32,6 %) hamda Denov (34,9 %) tumanlarida sanoat ishlab chiqarish hajmidagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini mazkur hudularda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.

**Viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan va yangi
tashkil etilgan sanoat korxonalari
(2020- yil 1- dekabr holatiga ko'ra)**


Bugungi kunda viloyatda 4013 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 705 tasi (ro'yxatdan o'tgan korxonalar umumiy sonining 17,6 % i) Termiz shahriga va 495 tasi (12,3 %) Denov tumaniga to'gri kelmoqda.



2020- yilning yanvar-noyabr oyida viloyatda 1 711 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi, shulardan 256 tasi (jami yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari hajmidagi ulushi 15,0 %) Denov tumanida, 201 tasi (11,7 %) Termiz shahrida tashkil etildi.

**Shahar va tumanlar kesimida faoliyat
ko'rsatayotgan sanoat korxonalari
2020- yil 1- dekabr holatiga ko'ra**

Bugungi kunda shahar va tumanlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan eng ko'p sanoat korxonalari joylashgan hududlar 5 taligiga Termiz shahri (705 ta), Denov (495 ta), Sho'rchi (269 ta), Termiz tumani (259 ta) hamda Qumqo'rg'on (251 ta) tumanlari qayd etildi.



2020- yilning 1- dekabr holatiga ko'ra Viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan eng kam sanoat korxonalari joylashgan hududlar 5 taligiga esa Bandixon tumanida (48 ta), Qiziriq tumanida (178 ta), Oltinsoy tumanida (196 ta), Angor tumanida (210 ta) hamda Sherobod tumanida (219 ta) qayd etildi.

**Sanoat statistikasi
bo'limi
Tel.: (76) 225-65-76**